

IN VITRO USULIDA YARATILGAN GILOS KO‘CHATLARINI KASALLIKLARGA VA ZARARKUNANDALARGA CHIDAMLILIGI

Normurodov Davlat Soyibnazarovich

q,x,f,n. dotsent, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
Universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq – ovqat xavfsizligi instituti.

Normurodovdavlat7@gmail.com

Eshonqulova Iroda Isomiddin qizi

magistranti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
Universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq – ovqat xavfsizligi instituti,
irodaeshonqulova88@gmail.com

ANNOTATSIYA

Annotasiya. Ushbu maqolada Gilosni in-vitro usulida sog‘lomlashтирilган ko‘chatlarni jadal ko‘paytirish orqali gilosning turli xil kasalliklariga chidamli virussiz ko‘chatlari yetishtirish va hosildorlikni oshirish va eng muhim iqtisodiy samaradorlikga erishish shuningdek hozirgi vaqtida mahalliy bog‘dorchilikni sifatli, serhosil, oziqa elementlarga boy bo‘lgan o‘simliklar bilan taminlash ishlari olib borilmoqda.

Kalit so‘zlar: *Gilos, ko‘chat, zararkunandalar, o‘sish, hashoratlar, in vitro, Sag Agro, labaratoriya, virus, zamburug‘, variant.*

KIRISH

Hozirgi paytga kelib dunyoda aholi sonining ortib borishi sifatli oziq-ovqatga bo‘lgan talabning oshishiga olib kelmoqda. Xususan O‘zbekiston hududa qishloq xo‘jalik maxsulotlarini yetishtirish va zararkunandalarga, turli iqlim omillariga chidamli, bog‘dorchilik sohasida yuqori hosilli ko‘chatlar yetishtirish ishlari olib

borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 maydag‘i “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘sishmcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PQ-4709-son qarorida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmini ko‘paytirish orqali ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta’minalash hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ekin maydonlari sezilarli darajada kengaytirildi. Shuningdek, tumanlarni mevasabzavotchilik klasterlari hamda kooperatsiyalarga birlashtirish kabi amaliy choralar ko‘rilmoxda.[1] Hozirgi kunda O‘zbekiston dunyoda gilos yetishtiruvchi 40 mamlakatlar ro‘yxatiga kiradi. Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston gilos yetishtirish bo‘yicha dunyo peshqadamlarining 10 taligiga kiradi.[2] Gilosning mazzasi va inson salomatligiga foydali ta’siri ko‘p bo‘lganligi sababli, unga nafaqat gilos yetishtiruvchi davlatlarda, balki gilos yetishtirmaydigan yoki kam hajmda yetishtiradigan mamalakatlarda ham talab katta. Dunyo bozorida yildan yilga gilosga talab oshib borayotganligi kuzatilmoqda, so‘nggi 5 mavsum davomida talabning o‘ratacha o‘sish so‘r’ati 7% tashkil etmoqda. O‘zbekistonda qishloq ho‘jaligida olib borilayotgan islohotlar natijasida, jumladan, maydonlarni oshirish va intensiv bog‘lar barpo etilishi, yaqin kelajakda gilos yetishtirish va uning eksport hajmi yanada ortishidan dalolat beradi.

TADQIQOT MATERIALLARI, METODOLOGIYASI VA NATIJALARI

O‘zbekistonda gilos har yili meva beradi, lekin hosil yillari bo‘yicha o‘zgarib turadi. 15-20 yoshdag‘i gilos daraxti to‘la meva berish davrida o‘rtacha 100-150 kg, ba’zan 200 kg va undan ortiq hosil beradi. Gilos hosildorligi shoda novdalar soni va ularning saqlanib qolishiga bog‘liq. O‘sish novdalarda 20-30% gulkurtak, shoda novdalarda 70-80% gulkurtak joylashadi. Gilos yoshi katta bo‘lishi bilan meva berishi shoda novdalarda to‘planadi. Fevral oxirimart



boshlari gilosda vegetatsiya davri boshlanishining o‘rtacha muddatlaridir, aprelning birinchi yarmida gullay boshlaydi, ertapishar navlar may boshlarida, ayrim yillarda aprel oxirida pishadi, odatda 5 noyabrdan 22 noyabrgacha bargi to‘kiladi.[3] O‘zbekistonda gilosning yaxshi o‘sishi uchun avvalo mahalliy sharoitga eng moslashgan navlarni tanlash kerak. Gilos boshqa mevali daraxtlarga nisbatan zararkunandalarga ancha bardoshli. Asosan unga qushlar zarar 40-90% keltiradi. Biz tadqiqotni Samarqand viloyati Jomboy tumanida joylashgan Sag Agro MCHJ laboratoriyasida olib bordik. Bu In vitro laboratoriyalarda mevali daraxtlarning turli kasallik va zararkunandalardan holi hamda qurg‘oqchilikka chidamli, turli iqlim sharoitiga mos navlarining klon payvandtaglari va payvandlangan ko‘chatlari yetishtiriladi.

Gilosning navlariga eng xafli bo‘lgan zararkunandalar, parazitlar, turli kasalliklar hosilning kamayishiga, gilos ko‘chatlarini erta nobud bo‘lishiga olib kelinadi. Gilos o‘simligini parvarish qilish murakkab jarayon bo‘lmasdan barcha ekib o‘stiriladigan o‘simliklarning agrotexnikasiga o‘xshash lekin labaratoriyada yaratilgan gilos navlarida kasaliklar va zararkunandalar qarshi imun tizimi mustahkam klon varyantlari yaratilgan bo‘lib bu ko‘chatlardan intensiv gilos bog‘lar yaratilmoqda.



Gilos kasallik va zararkunandalar

	Zabrug‘li	Virusli	Hashoratli kasalliklar
	Kokkomikoz	Olxo‘ri chechagi (PPV) virusi	Olcha pashshasi.
	Monilioz	Fitopotogen viruslar	Olcha shirasi (6iti)
Gilos ko‘chatlariga	Klyasterosporioz	Little cherry 1 (LChV-1)	Gilos qora biti
	Meva chirishi	Cherry Necrotic Rusty Mottle (CNRMV)	O‘rgimchakkana
	Un-shudring (oidium)	Cherry leaf roll virus (CLRV)	Kaliforniya qalqondori
	Sitosporoz		O‘rik filchasi

Samarqand viloyati Jomboy tumanida joylashgan Sag Agro MCHJ laboratoriyasida ajratilgan tajrib yer uchastkasida in-vitro usulida yetishtirilgan gilos ko‘chatlarini klon varyantlari va oddiy usulda o‘stirilgan gilos ko‘chatlarini 2 ta variant sifatida qo‘yildi. Olib borilgan tadqiqotlari natijasida oddiy usulda o‘stirilgan nihollarda virus bilan zararlanishga chalinish o‘rtacha ko‘rsatkichlarni qayt edi. Hozirda qo‘yilgan vartyantlarda yana ko‘zatish ishlari olib borilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Samarqand viloyati Jomboy tumanida gilos yetishtiriladigan tadqiqot uchastkasida fenologik kuzatuvlari olib borilganda bir qator virusli kasalliklarga xos alomatlar in vitro usulida yetishtirilgan nihollarda ko‘zatilmadi. Keyingi tadqiqotlarimizda zamonaviy texnologiyalar yordamida gilos nihollarini monitoring qilish kasalliklarni aniqlash va ularni oldini olish muhum vazifalardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatimizda turli kasalliklarning tarqalishini oldini olish va iqtisodiy zararni kamaytirishni imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-4709-son qarori 2020.
2. Xalqaro KAB tashkiloti – Gilos yetishtirish. – AQSh, 1996.
3. A.E. Qarshiev-Gilos yetishtirish 2021.
4. Zamonaviy intensiv gilos bog‘lari Toshkent 2018.